

## O'ZBEKISTON AHOLISINING TARIXIY GEOGRAFIYASI (XX ASRNING 20-80-YILLARI)

**Mardonova Zarina**

*Buxoro davlat universiteti talabasi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** Depopulyatsiya, aholi geografiyasi, tabiiy o'sish, ambulatoriya, industrial, migratsion, manfiylashuv, ministrilar soveti.

### Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston aholisining etnik tarkibi, tarixiy voqea-hodisalar, shu bilan birga aholining geografik joylashuvi haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari, mustaqillikkacha bo'lgan jarayonlar, shuningdek geografik mintaqalarning taqsimlanishi kabi ma'lumotlar haqida ham so'z yuritilgan. O'zbekiston aholisining ko'payish va kamayib borish tartibi haqida ham ma'lumotlar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

### KIRISH

Aholi deganda keng ma'noda odamlar majmui (guruhi) tushuniladi. Demografiya va aholi jo'g'rofiyasi fanlari esa aholini hudud tushunchasi bilan bog'lab o'rganadi, ya'ni aholi deganda ma'lum bir hudud doirasida istiqomat qiluvchi odamlar majmui anglashiladi. Aholi, aniqroq qilib aytganda, uning zaruriy tayyorgarlikka va mehnat tajribasiga ega bo'lgan qismi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Mehnatga layoqatli aholining katta qismi moddiy ne'matlar ishlab chiqarishda, qolgani esa xizmat ko'rsatuvchi sohalarda va ro'zg'or ishlari bilan banddir. Kishilar ishlab chiqarish kuchlari, moddiy ne'matlarning yaratuvchilarigina bo'lib qolmasdan, balki uning iste'molchilari hamdir.

O'zbekiston aholisi 2002-yil boshida 25.2 millionga teng bo'lgan. Agar O'rta Osiyo tarkibiga kirgan to'rtta davlat O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston, Turmaniston hamda Qozog'istonda yashovchi jami aholi 100 foiz deb oladigan bo'lsak, birgina O'zbekistonda uning qariyb yarmi istiqomat qiladi. MDH davlatlari ichida O'zbekiston aholisi soni jihatidan faqat Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi o'rinda turadi.

### ASOSIY QISM

Aholi geografiyasi bir qancha yo'nalishlarga bo'linadi:

1. Aholining tarkibi va uning takror barpo qilinishidagi geografik farqlar va bu farqlarning sababini o'rganishdagi geografik farqlarning sababini o'rganish (aholi geografiyasining umumiy masalalari).
2. Mehnat resurslarini va ulardan foydalanishdagi geografik farqlarni o'rganish.
3. Aholining territorial taqsimlanishi va uning harakatini (migratsiyasini) o'rganish.
4. Aholi punktlari va ularning territorial sistemalarini o'rganish. Aholi geografiyasining bu yo'nalishida shaharlarni va qishloq aholi punktlarini alohida o'rganuvchi shaharlar geografiyasi va qishloq aholi punktlari geografiyasi vujudga kelgan.

5. Aholining madaniyati va turmush sharoitlaridagi geografik farqlarni va ularning sabablarini o'rganish.
6. Tarixiy aholi geografiyasi. Bu yo'nalish o'tgan tarixiy davrlar aholi geografiyasini o'rganadi va tarixiy geografiyasining bir qismi hisoblanadi.
7. Aholini kartaga tushirish.

Respublikamizning qumliklaridan iborat bo'lgan g'arbiy hududlarida aholi zichligi juda past, ya'ni u yerlarda aholi kam yashaydi. Masalan Qoraqalpog'iston respublikasida o'rtacha aholi zichligi har bir kvadrat kilometr maydonga 9 kishiga, Navoiy viloyatida esa undan ham kam-7 kishiga to'g'ri keladi. Farg'ona vodiysi viloyatlarida aholi juda zich joylashgan. Andijon viloyatida har bir kvadrat kilometr maydonga 536.5, Farg'ona viloyatida esa 409.2 kishiga to'g'ri keladi [2].

O'zbekiston ko'p millatli davlat. Hozirgi kunda respublikamizda 100 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. Aholining asisiy qismini mahalliy xalq-o'zbeklar tashkil qiladi. Ularning umumiy aholi sonidagi salmog'i yil sayin ortib bormoqda.

O'zbekiston aholisining deyarli yarmini 20 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil qiladi.55 va undan yuqori yoshdagi kishilar jami aholining 8 foiziga teng. Jinsiy tarkibda ayollar ko'pchilikni tashkil etadi. Hozirgi kunda umumiy aholi orasida ayollar salmog'i qariyb 50.1 foizni tashkil etadi [1]. Keying yillarda aholining jionsiy tarkibida ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda, ya'ni erkaklar soni bilan ayollar soni orasidagi farq asta-sekin kamayib bormoqda. Masalan, 1980-yil ma'lumotiga bo'yicha O'zbekistonda ayollar erkaklarga nisbatan 268 ming marta ko'p bo'lgan bo'lsa, 2002-yilga kelib, bu raqam 60.6 mingga tushib qoldi. Mamlakatimizda hozir har ming erkakka 1006 ayol to'g'ri keladi. Ayollar soni bilan erkaklar sonining asta-sekinbir-biriga yaqinlashib borishi ko'p tomondan muhim ahamiyat kasb etadi [2].

So'nggi yillarda respublika umumiy aholisi ko'payish sur'atining pasayishi va qishloq aholisining shaharliklarga nisbatan tezroq o'sish jarayoni kuzatilmoqda. Ayni paytda shahar aholisining ko'payish sur'ati eng past darajaga tushib qolgan (1.05%). 2000-2005-yillarda aholining o'rtacha o'sish sur'ati 1.2% ni tashkil etdi [4]. Undan keyingi yillarda aholi sonining o'sishi biroz susaygan, biroq shahar aholisining nisbatan tezroq ko'payish jarayoni saqlanib qolgan. Masalan, 1970-1979-yillarda shahar aholisi 146.9% ga, qishloq aholisining soni 120.9%ga va jami aholi soni 130.1% ga o'sgan. Ko'rinib turibdiki, bu davrdan respublika qishloq joylarining demografik rivojlanishi shahar va shaharchalarga qaraganda ustunroq bo'ladi.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilning 1- yanvar holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi 34.6 million kishini tashkil etgan.

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining etnik tarkibi quyidagi ko'rinishda namoyon bo'lmoqda:

- O'zbek – 29.2 million kishi
- Tojik – 1.7 million kishi
- Qozoq – 821.2 ming kishi
- Qoraqalpoq – 752.7 ming kishi
- Rus – 720.3 ming kishi
- Qirg'iz – 291.6 ming kishi
- Turkman – 206.2 ming kishi
- Tatar – 187.3 ming kishi
- Koreys – 174,2 ming kishi

- Ukrain – 67.9 ming kishi
- Ozarbayjon – 41.2 ming kishi
- Belarus – 18.5 ming kishi
- Boshqa millatlar – 426.4 ming kishi

## XULOSA

O'zbekiston respublikasida aholi soni ko'p jihatdan uning yoshi va jinsiy tarkibiga bog'liq holda o'zgargan. Bundan tashqari, ayrim hududlardagi aholi milliy, ijtimoiy tarkiblari va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha ham farqlanadi. Shu jihatdan Turkiston aholisi tarkibini tahlil etish, unga xos qirralarni ko'rsata bilish katta ahamiyat kasb etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – T.: Noshir, 2010.
2. Komilova N, Soliyev A. “Tibbiyot geografiyasi. – Toshkent. Istiqlol, 2005.
3. Yuldosheva, B. M. (2022). SOMONIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRIDA BUXORO SHAHAR MADANIYATINING RIVOJLANISHI VA ATROF-MUHITGA MUNOSABAT. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1307-1313.
4. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржонова, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
5. Yuldosheva, B. M. ., & Isломova, S. J. qizi . (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszłości*, 41, 132–135.
6. Shoimardonkulovich, Y. D., & Kadirovna, S. N. (2022). GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 102-104.
7. Sh, Y. D. (2021). Ensuring Sustainable Growth of Uzbekistan's Economy on the Basis of Efficient Use of Investments. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 1(2), 1-4.
8. Юлдошева, Б. М. (2021). ЭКОЛОГИК МУАММОЛАР: ХАЛҚАРО ҲАМЖАМИЯТ МУНОСАБАТИ ВА ТАРИХИЙ ЁНДАШУВ: Юлдошева Бибиражаб Миржонова Бухоро давлат университети докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5).
9. Mirjonovna, Y. B. (2021). Question About the Environment: Has the Historian Studied the Environmental Problem?. *Academicia Globe*, 2(01), 10-17.
10. Mirjonovna, Y. B. (2021). CHO'L SHAMOLLARINING BUXORO SHAHAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 637-645.
11. Юлдошева, Б. М. (2020). XX АСРНИНГ 80-ЙИЛЛАРИДА АТРОФ-МУҲИТ МАСАЛАСИГА ЁНДАШУВЛАР ТАРИХИДАН (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА). *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, (SI-1№ 4).
12. Yuldosheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOIIY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
13. Mirjonovna, Y. B. (2021). The influence of arab caliphate on formation of bukhara urban culture. *Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)*, 2(08), 28-32.